

MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI

Xujayev Dilmurod Bakiyevich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

II bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

p.f.f.d (PhD) dotsent, BuxDPI

Annotatsiya:Maqolada mavriги va buxorcha jjanrlarining tarixiy genezisi, folklor qo‘shiqklarining pedagogik jihatlarining ahamiyati, ular mazmun-mohiyatini tavsiflovchi asosiy omillar, tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mavriги, buxorcha, folklor qo‘shiqklari; mavsumiy qo‘shiqklar; yalinchoqlar; axloqiy-esetik tarbiya.

Аннотация:В статье описывается исторический генезис мавригического и бухарского жанра, значение педагогических аспектов фольклорных песен, основные факторы, характеризующие их содержание, а также методические рекомендации, направленные на раскрытие их воспитательного потенциала.

Ключевые слова:мавриги, бухорча, песни фольклора; периодические песни; упрощенные песни; нравственно-эстетическое воспитание.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston hududidan topilgan qoyatoshlar tasviridagi arxeologik topilmalar milliy raqsimizning juda qadimiyigidan guvohlik beradi. O‘zbek raqs san‘atining qadimiyiligi, shakl va turlarining boyligi ajdodlarimiz o‘tmishi asosan, dehqonchilik va hunarmandchilik kasblari bilan bog‘liq bo‘lganligi bilan izohlanadi. Zardushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto” davridayoq raqs san‘ati shakllanib, xalq va professional yo‘nalishda rivojlanganligi manbalarda o‘z aksini topgan. Yuqorida aytganimizdek uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan o‘zbek raqs san‘ati o‘zining turli davrdagi taraqqiyoti va tanazzulini boshidan kechirdi. Va ayni paytgacha O‘rta Osiyoda, aniqrog‘i O‘zbekistonda uchta raqs maktabi: Buxoro, Farg‘ona va Xorazm ijrochiligi mavjud.

Buxoro raqs ijrochiligi maktabi, aniqrog‘i “Buxorcha va Mavriги” raqsining o‘ziga xos an‘anaviy xususiyatlari bor. Buxoroyi Sharif nafaqat o‘zining osori atiqalari, balki ma‘naviy – ma‘rifiy qadriyatlarini bilan ham alohida ajralib turadi. Jumladan, uning musiqa ilmi, shuningdek raqs san‘atida ham Sharq G‘arbda alohida e‘tirof va ishonchga sazovor bo‘lib kelayotgani hych kimga sir emas. Gap shundaki, Buxoro raqs san‘atida “Buxorcha” va “Mavriги” nomi bilan mashhur bo‘lgan xalq raqs turkumlari mavjudki, uni boshqa xalqlar raqs san‘atida uchratish mushkul. Mazkur turkum qo‘shiq va raqslarda asosan Buxoroga xos bo‘lgan sheva va o‘yin harakatlari mujassam bo‘lib, unda mahalliy urf – odatlar, she‘riyatda zullisonaynlik, shuningdek ijroda o‘ziga xoslik yaqqol sezilib turadi.

“Buxorcha” va “Mavriги” qo‘shiq va raqs turkumlarining yuzaga kelishi va shakllanishi jarayoni ham o‘ziga xos tarixga ega. “Buxorcha” turkumi buxoroliklar ijodkorligi va ijrochiligi hosilasi sifatida shakllangan turkum bo‘lsa, “Mavriги” migrasion qo‘shiq va raqslardan iborat bo‘lgan turkum ko‘rinishda buxoroliklar ijrochiligida sayqallanib, to‘lishib borayotgan qo‘shiq va raqslar majmuasidir.

Shuni ta‘kidlamoqchimizki, XVI asrda, Ubaydullaxon zamonida, keyin Abdullaxon hukmronligi davrida va XVIII asrda Amir Shohmurod saltanati davrida Mavrdan Buxoroga ko‘chirilgan muhojirlar orasida nafaqat forslar, balki boshqa millat vakillari borligini ham inobatga olsak, “Mavriги” turkumi Marvdan Buxoroga zo‘rlab ko‘chirilgan barcha mavrliklarning – nainki faqat fors – tojik, balki turkman, o‘zbeklarning ham mushtarak ijodiy mahsuli ekanligi namoyon bo‘ladi.

“Buxorcha” va “Mavriги” egizak turkum sifatida, asosan, oilaviy – maishiy marosimlarda (beshik to‘yi, xatna, nikoh va h.zo) kuylanadi; o‘tmishda “Buxorcha” ichkarida xotin – qizlar bazmida “Mavriги” esa tashqari hovlida erkaklar bazmida ijro etilgan, hozirgi kunda esa, bu tafovut tamoman yo‘qolgan, chunki bazmlaru shodiyonlarda erkagu ayol aralashiga qatnashadigan bo‘ldi. Aytish joizki, ushbu ikki

turkum tuzilishida, raqs kiyimlari va ijro uslubida farq qiluvchi xususiyatlar mavjud. “Buxorcha va Mavrigi”lar uch qismdan iborat o’ziga xos ko’rinishga ega:

1. Birinchi payt – “Shahd”
2. Ikkinchi payt – “Chorzarb”
3. Uchinchi payt – “Shikan – shikan” dan iboratdir.

“Mavrigi” turkumi xalq qo’shiq va raqslari majmuasi tarzida shakllangan bo’lib, qadimda uni to’rt doyradast hofiz kuylagan. XX asrning 60-70 yillariga kelib, mavrigixonlar dastasi 6 yoki 7 kishilik ijrochilar guruhi darajasiga yetgan. O’tmishda mavrigi qo’shiqlari faqat doyra (ba’zida nog’ora, qayroq ham ularga jo’rnavor bo’lgan) bo’lsa, bugunga kelib unga barcha xalq cholg’u asboblari ansambli jo’rnavorlik qilmokda.

“Mavrigi”xonlik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O’zbekistonning Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Turkmanistonning Mori, Chorjo’y, Tojikistonning Dushanbe va Xo’jand kabi shahar xalqlari orasida keng tarqalgan bo’lsa, hozir kunga kelib u O’zbekistonning barcha viloyatlari, shuningdek Tojikistonning ko’pgina hududlarida kuylanmoqda.

Qadimda “Mavrigi” guruhlari nafaqat ma’muliy (xalq orasida o’z san’atini namoyish etadigan guruh), balki “xos” (amir saroyida ham faoliyat yuritadigan) to’dalardan tashkil topgan bo’lgan. O’sha paytda Buxoro amiri saroyida ham 24 nafardan iborat erkaklar guruhi mavjud bo’lib ularning safida bir necha “Mavrigi”xon bolalar xizmat qilganlar. “Mavrigi”xon bolarning yoshi 13-15 dan iborat bo’lib, ular ko’p holda 18-19 yoshgacha to’dada faoliyat ko’rsatganlar, so’ngra ular sarbozlikka uzatilgan yoki erkin “Mavrigi”xon sifatida xalq ichida tomoshalar ko’rsatib yurganlar.

Buxoro yosh raqqoslarining faoliyati bevosita “Mavrigi”xonlar bilan bog’liq bo’lgan. Ular 2 yoki 3 mavrigixon doyradast bilan chiqishlar tashkil qilar edilar. Xonanda (“Mavrigi”xon) o’z chiqishida dastlab “Chorchilik”, so’ngra “Bahri tabil”ni ijro qilib, keyin “Mavrigi”xonlikka o’tar edi. Ba’zan esa, ularning xonishlari “Shahd”, “Furovardi shahd”, shuningdek, “Chorzarb” singari raqsbob qo’shiqlar bilan boshlanar edi. Doyradast “mavrigi”xonlar tomonidan klassik shoirlar she’rlari bilan ijro etiladigan “Bahri tabil”, “Chorchilik” qo’shiqlarining raqslari ohangdor, vazmin va tinglovchini chuqur fikr o’ylovga soladigan raqslar bo’lib, raqqosni navbatdagi sho’h, purviqor mavrigi raqslarini ijro etishga tayyorlaydi.. Va raqqoslar doyradast xonandalarning sershavqu serzavq ijrolari ostida chiroyli raqslarni namoyish etib, tomoshabinlarni hayratga solar edilar.

“Chorzarb” raqsida doyradastlar o’z ro’palarida o’tirgan o’yinchiga ishora qilib uni raqsga chorlar edilar. So’ngra raqqos o’z o’rnidan turib ikki qo’lini yuqoriga ko’tarib uning bandlarini aylantirib bir oyog’ini ikkinchi oyog’i orqasiga o’tkazib, o’ng oyog’i uchi bilan raqs usulini ifoda etardi. Keyin oyoqlar avvalgi holatga kelib, raqqos “Shikan – shikan” raqsini ijro etib oldinga harakat qilardi. “Shikan – shikan” raqsi “Mavrigi” silsilasiga xos bo’lib, u ijro davomida ko’p marta takrorlanardi. Uning ijrosi davomida doyradastlar xonishidan ta’sirlangan raqqoslar ko’llari bilan qarsak chalib raqsning jozibadorlik ta’sirini yanada oshirardilar. Shu alfozda “Chorzarb” raqsi ancha uzoq davom etardi. Shundan so’ng “Mavrigi”xonlar kichikroq hajmdagi sho’h va zavqovar qo’shiqlarni kuylashga kirishar edilar.

Bu janr “Maydaxoni” yoki “Miyonaxona” (naqarot) deb nomlanardi. Har bir qo’shiq misrasidan so’ng yakkaxonlar quyidagi naqarotni takrorlar edilar.

Maza dorad labi yor,

Duxanda dorad labi yor.

Bu vaqtda raqqos doyradastlarning “minaxona”ga o’tishga u “shikan – shikan” raqsini o’ynab ular oldiga borar edi. Keyin doyradast unga ro’parasida oyoqlarini bukib o’tirib olishga ishora qiladi.

Ijrochi sal bukilgan qo’llarini yuqoriga ko’tarib, panjalarini ochgan holda goh chapga va goh o’ngga aylanadi. So’ngra gavdasini rostlab oldinga egiladi va kiftlarini yuqoriga ko’tarib chap hamda o’ng tomongan egiladi. Qo’llarini boshi ustiga ko’tarib takroran charx usulini bajaradi. O’tirgan holda raqsga tushish usuli taxminan 20-25 daqiqa davom etadi. Raqqos “Mavrigi”xonlik jarayonida doyradastlarning ishorasi bilan ularga yuzlanib shu harakatlarini yana takrorlaydi. Shu onda doyradastlar yana “Chorzarb” ijrosiga o’tadilar va raqqos tag’in “Chorzarb” raqsi harakatlarini takrorlaydi. Zero

“Chorzarb” va “Miyonaxona”ning ijro tartibi shu tarzda o‘tkazilishi shart qilib qo‘yilgan. Bu orada doyradastlar ijroning rang – barang bo‘lishi uchun muxammasxonlik ham qilardilar.

“Mavrigi” raqsining yana bir nusxasi quyidagicha ijro etiladi: Uni besh raqqos bajaradi. Buning uchun o‘yinchilar xuddi domino donasining o‘rnashishi singari to‘rt burchak va biri o‘rtada bo‘lgan shakl hosil qiladilar. Ularning qo‘llarida uzunligi qariyb bir metr keladigan ikkitadan uzun cho‘p bo‘lib ular cho‘pni pastki qismidan ushlab turadilar. Raqqosa yuzma – yuz turib vals ijro etayotgan singari charx uradi va o‘rtadagi nuqta atrofidan aylanib sakkiz raqami shaklini hosil qiladi. Bu holatda raqqosning asosiy mahorati shundan iborat bo‘ladiki, raqqos ham o‘z raqibi bilan va o‘rtadagi o‘yinchi ishtirokida navbat ila cho‘pni bir – biriga urib chillak hosil qilishi lozim. Buxorcha va Mavrigi taronalari ilmiy jihatdan tadqiq qilish asrimizning 1955-1960 yillarida boshlangan. Buni Buxorolik ustoz san‘atkor, ko‘p yillar Tojikistonda teatr san‘ati, folklor va musiqa san‘atini rivojiga katta hissa qo‘shgan Nizom Nurjonov boshlab berganlar. U kishi Buxoro shahri va uning atrofidagi tumanlarda birinchi ekspedisiyani uyushtirib, 150ga yaqin qo‘shiqlarni lentali kassetaga yozib olganlar.

Buxoroda asosan 1960-1970 yillarda xalq orasida bir necha folklor jamoalar faoliyat yuritgan. Jumladan: To‘hfaxon Pinxasova asos solgan “Nozanin”, Oliyaxon Xasanova rahbarlik qilgan “Mohi Sitora” kabi folklor ansambllarda asosan “Buxorcha” turkumiga oid qo‘shiq va raqslar, shuningdek, Buxorocha muxammasxonlik janrlari kuylangan. Shu davrlarda Mavrigixonlar Mulla Muhammadi Zangboz, rikobiy hofizlar Qoqo Muhammad, Mirzo Muhammad, Ashur qori, Ko‘ka Ma‘dali, Davlat Sohib, Usta To‘la, Usta Ergash, Kozim Rahmon, G‘ulom Garmon, Abdulla Qurbon, Rahim Dangiz, Baqojon Sa‘dullo, Qori Habib, Ibrohim Qosim, Ismoil Sharof, Haydar Shodi, Mehdi Ibodov, Orif Atoev kabi san‘atkorlar faoliyat yuritgan.

1970 - 1990 yillar davomida Respublika va sobiq SSSR miqyosida o‘tkazilgan turli festivallar, ko‘rik tanlovlari, boshqa madaniy tadbirlarda “Buxorcha va Mavrigi” taronalari keng miqyosda ijro etib kelingan.

1993 - 2000 yil davrida Buxorolik keksa san‘atkor urush va mehnat faxriysi Rahmatjon Naimov bilan hamkorlikda Buxoro folklor san‘atining bilimdoni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Orif Atoev, musiqashunos olim Fayzulla To‘rayevlar “Buxorcha va Mavrigi” taronalari izlab topish, tadqiq etish bo‘yicha 2-ekspedisiya tadqiqot ishlarini olib borib 100 ga yaqin qo‘shiqlarni notalashtirish ishlarini olib borganlar.

2000 – 2005 yillar davomida esa, professor, folklorshunos olim Oxunjon Safarov, musiqashunos olim Fayzulla To‘rayev, ustoz san‘atkor Orif Atoevlar birgalikda ijodiy izlanish olib borib ilk marotaba “Buxorcha va Mavrigi taronalari” deb nomlangan kitobni chop etishga muvaffaq bo‘lganlar.

2006-2007 yillar davrida Buxorcha va Mavrigi taronalari Xalqaro miqyosda e‘tirof etilib, Shvesariya elchixonasining madaniyat sho‘basi bilan hamkorlikda ilk marotaba taniqlik rejissyor Avliquli Xodjaquli tomonidan sahnalashtirilgan “Mavrigi” teatrlashtirilgan konsert spektaklini ko‘p sonli tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilganlar. Bu loyiha Toshkent shahrida o‘tkazilgan bo‘lib, turli diplomatik korpuslar, keng jamoachilik vakillari tomonidan e‘tirof etilgan. Shu davrlarda Buxoroda viloyat miqyosida “Mavrigi” festivallari va mahorat darslari tashkil qilingan bo‘lib juda keng ommalashgan. Ushbu tadbirlarni bevosita O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo‘linmasi qoshidagi “Buxorcha”, “Buxoro go‘zallari”, “Mavrigi” ansambllari amalga oshirgan. Shu bilan birga bugungi kunga qadar “Buxorcha va Mavrigi taronalari”ni keng targ‘ibot qilish faqatgina O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo‘linmasi qoshidagi “Mavrigi” ansambli tomonidan targ‘ib qilinishini kamlik qilinadi. Chunki, shu turkumdagi qo‘shiqlar targ‘iboti bilan butun viloyatdagi ansambllar, musiqa maktablari, teatrlar, qolaversa, oliy ta‘lim dargohlari, maktablar shug‘ullansagina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ansambl 2009 yil Sultanat Oman, Tojikiston, 2010 yil Malayziya, 2011 - 2012 yillarda Qatar, Doxa kabi davlatlarda o‘tkazilgan turli xalqaro festivallarda ishtirok etib, diplomlar, sovg‘alar, sertifikatlar bilan taqdirlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

“Buxorcha va Mavrigi” taronalari” ba‘zi bir sabalarga ko‘ra ma‘lum muddat tazyiqqa ham uchragan. Viloyat, Respublika miqyosida turli madaniy tadbirlarda matnlari, musiqa ohanglari

o'zgartirilib, uni kuylash, ijro etishda bir muncha muammolar kelib chiqqan. Ba'zi hollarda umuman ijro etilmagan. Bu esa, o'z o'rnida "Buxorcha va Mavrigi" turkum qo'shiqlarining xalq orasida unutilib borilishiga sabab bo'lgan.

2016 yildan boshlab esa, "Buxorcha va Mavrigi taronalari" ni ijro etish qayta yo'lga qo'ygan. Buxoroda har yili an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Ipak va ziravorlar festivali"da ushbu janr baralla kuylangan va xorijiy sayyohlar, mehmonlar tomonidan olqishga sazovor bo'lgan. Yana "Buxorcha va Mavrigi taronalari" dunyo sahnalarida namoyon bo'la boshlagan. Jumlanadan: 2018 yil Vyetnamda bo'lib o'tgan "O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari", Germani va Fransiyadagi O'zbekiston elchixonalaridan tashkil qilingan madaniy tadbirlarda "Buxorcha va Mavrigi"lar zo'r olqish bilan kutib olingan. 2019 yil esa, bu janr yana dunyo sahnalarini ko'rgan, Turkiyada bo'lib o'tgan (Yalova, Inigiyul, Bursa) xalqaro festivallarda "Buxorcha va Mavrigi taronalari" Grand Pri sohibi bo'lgan. Shuningdek, Ozarbayjon va Xitoy davlatida Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan tashkil qilingan O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari doirasidagi tadbirlarda "Buxorcha va Mavrigi taronalari" o'zining serjilloligi, betakrorligi bilan tomoshabinlarni maftun qilgan. Bundan tashqari, 2020 yil pandemiya davrida "Mavrigi va Buxorcha taronalari"ning Chorzarb turkum qo'shig'i "World Folk Vision 2020" milliy madaniyat va san'at butunjaxon onlayn festival-konkursida ishtirok etib, 115 ta mamlakatdan, 1100 ta jamoa orasida raqs nominasiyasi bo'yicha 4-o'rin sohibi bo'lgan.

Bugungi kunda "Buxorcha va Mavrigi taronalari"laridan iborat viloyatda faoliyat yuritayotgan folklor ansambllari, musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan internat maktablari, teatrlar, badiiy havaskorlik jamoalarida repertuarlarida shu turkumga oid asarlar o'rtacha foizni tashkil qiladi. Buxoro davlat pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan musiqa kafedrasida, folklorshunos olimlari shu jumladan musiqashunos olimlar: O'zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo'linmasi direktori, folklorshunos, ommaviy bayramlar rejissyori Rauf Avezov, O'zbekiston respublikasi kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi p.f.f.d.(PhD) v.b. professor Nurullayev Farrux, O'zbekkonsert davlat muassasasi Buxoro bo'linmasi rahbari Dilmurod Xo'jayev, Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi direktori Boburshox Nurullayevlar "Buxorcha va Mavrigi taronalari" to'g'risida ilmiy maqolalar, turli risolalar, tadqiqotlar olib borayotganlari tahsinga loyiq.

Foydalangan adabiyotlar:

1. R. Avezov Buxorcha va Mavrigi konsepsiyasi. Metodik qo'llanma, 2015 yil
2. Alaviya M. O'zbek folklor qo'shiqlari. T.: O'zdamnashr, 1959. – 114 b.
3. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
4. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
6. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

10. Нуруллаев Ф.Г. Музыка таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. *Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal* 2020, 3-son. Buxoro. B.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно–методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. *Euro-Asia Conferences* 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. *European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE)* Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.
17. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 1 (01), 83-88.
18. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// *О‘zbekiston Milliy Universiteti xabarлари, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal* 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
20. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. *European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE)* Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)* Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109. Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// *Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов*. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
25. **Nurillaev Farrukh Gaybullaevich-** The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. *European Chemical Bulletin (Scopus-Q3)* ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// *Science And Education Scientific Journal*, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.589-595.



27. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы Steam// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, January 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// Science And Education Scientific Journal, Issn 2181-0842, Volume 3, Issue 1, J-2022
29. Nurullayev F.G. Rustamov F.T. Education Of A Child By Music In The Early Period Of Life. Spectrum Journal of Innovation Reforms and Development, volume 22,December2023,ISSN(E):2751-1731.
30. Nurillaev Farrukh Gaybullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996